3-bankir: Iqtisodiyotning fan sifatidagi eng asosiy vazifasi cheklangan resurslardan oqilona foydalanib, cheksiz, poyoni yo’q ehtiyojlarni imkon qadar ko’proq qondirish va oqilona xo’jalik yuritish yo’l – yo’riqlarini o’ranishdir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

- 1.X.Teshaboyev. “Interfaol usullari”. T.2019-yil
2. Metodik qo’llanmalar.
- 3.Internet saytlari.



UDK: 339.13

MINTAQADA TOVARLAR BOZORINING HOLATINI BAHOLASH
USLUBIYATINING O'ZIGA XOS JIHATLARI

Xudayberganov D.T.
Urganch davlat universiteti
doktoranti, i.f.n., dotsent

Annotatsiya: Ushbu maqolada Xorazm viloyati mintaqasida tovarlar bozorining holatini baholashning o'ziga xos xususiyatlari va uslubiyatining jihatlari yoritilgan.

Kalit so'zlar: Tovarlar bozori, strategiya, samaradorlik, baholash uslubiyoti, ko'rsatkich, tovar salmog'i.

Ma'lumki, respublikamizda olib borilayotgan islohotlar samarasini yanada oshirish, davlat va jamiyatning har tomonlama va jadal rivojlanishi uchun shart-sharoitlar yaratish, mamlakatimizni modernizatsiya qilish hamda hayotning barcha sohalarini liberallashtirish bo'yicha ustuvor yo'naliishlarni amalga oshirish maqsadida ishlab chiqilgan Harakatlar strategiyasi mos keladi. Ushbu strategiyaning asosiy yo'naliishlaridan biri iqtisodiyotni yanada rivojlantirish va liberallashtirishga yo'naltirilgan makroiqtisodiy barqarorlikni mustahkamlash, yuqori iqtisodiy o'sish sur'atlarini saqlab qolish va milliy iqtisodiyotning raqobatbardoshligini oshirish hisoblanadi [1]. Buning uchun iqtisodiyot tarmoqlarini keng rivojlantirish lozim bo'ladi.

Bu borada iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida asosiy ustuvor vazifa bozor munosabatlarini chuqurlashtirish orqali iqtisodiyotni istiqbolli rivojlantirish hisoblanadi. Bunday holat iqtisodiyotning xizmat ko'rsatish sohasi bilan uyg'unlikda taraqqiy qilishini ko'rsatadi. Iqtisodiyot tarmoqlarini keng taraqqiy qildirish uchun respublikamizda yangi strategiya ishlab chiqildi. Chunki, olib borilgan tahlil ishlab chiqarishni modernizatsiya va diversifikatsiya qilish, uning hajmini oshirish hamda ichki va tashqi bozorlarda raqobatbardosh mahsulotlar turlarini kengaytirish borasidagi ishlarning lozim darajada olib borilmayotganini ko'rsatdi [2]. Mazkur masalaning asosiy yechimi sifatida bozor faoliyatini rivojlantirish va samaradorligini oshirishni taqozo qiladi.

Bugungi kunda iqtisodiyotning asosiy tarmoqlaridan biri tovarlar bozori hisoblanib, uni keng taraqqiy qildirish iqtisodiy munosabatlarni amalga oshirish asosida aholining turli xil tovarlariga bo'lgan ehtiyojini qondirishni belgilaydi. Shu bois, O'zbekiston va uning mintaqalarida iqtisodiyotini modernizatsiyalash va liberallashtirish sharoitida tovarlar bozori alohida o'rinni egallaydi.

Tovar bozorlarining hozirgi holati, ulgurji va birja savdosining rivojlanish darajasi zamonaviy talablarga javob bermaydi. Savdo aylanmasining kengayishiga, ichki bozorni va ishlab chiqaruvchilarni zarur tovarlar bilan ta'minlashga hamda respublikada ishlab chiqarilayotgan mahsulotlarni eksport qilishga to'sqinlik qilayotgan bir qator muammolar mavjud [3]. Mazkur muammoni hal qilish borasida ushbu bozor muhim ijtimoiy-iqtisodiy kategoriya bo'lib, uni rivojlantirishga qaratilgan islohotlarni chuqurlashtirish tovarlar bozori samaradorligini oshirish uslubiyatini ishlab chiqish va yanada takomillashtirishni taqozo qiladi.

O'zbekiston mintaqalarida, xususan Xorazm viloyatida tovarlar bozori samaradorligini oshirish uslubiyatini takomillashtirish ustuvor vazifa sifatida muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki, mintaqada ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlarni amalga oshirish asosida aholining turli tovarlarga bo'lgan ehtiyojini qondirish orqali ushbu bozorning samaradorligini oshirish asosiy ustuvor masala bo'lib qolmoqda.

Tovarlar bozori samaradorligini baholash mahsulotlarni ishlab chiqarish jarayoni bilan bog'liqidir. Bu holatda samaradorlik ishlab chiqarish natijalarining ishlab chiqarish omillariga xarajatlar nisbati tarzida hisoblanadi. Shunga muvofiq, samaradorlik ko'rsatkichi tovarlar bozorining muhim indikatori bo'lib, samara yoki natijaning qilingan xarajatlar hamda samarani sarflangan resurslar miqdoriga nisbatidir.

Tovarlar bozorini samarali rivojlantirish mamlakatimizda ishlab chiqilgan me'yoriy-huquqiy hujjatlar orqali ta'minlanmoqda. Bu hujjatlarning amaliy natijasi bugungi kunda muhim omil yo'naliishi sifatida to'la namoyon bo'lmoqda. Shu bois, tovarlar bozori samaradorligini oshirish omillari iqtisodiyot tarmoqlarini rivojlantirishga qaratilgan va muhim bo'lgan belgilangan vazifalar



sifatida quyidagi chora-tadbirlarni amalga oshirishni ta'minlaydi:

- bozor faoliyatini jadal rivojlantirishga erishish, har bir xizmat turlarini kengaytirish va yangi xizmat turlarini joriy qilish;
- tovar ishlab chiqarish, xizmatlar infratuzilmasini rivojlantirish, iqtisodiyotda tutgan o'rni va salmog'ini oshirish;
- tovarlar va xizmatlarning monopollashuviga bahram berish va ularning umumjamiyat ehtiyojlarini qondirishga erishishni ta'minlash;
- kichik biznes va tadbirkorlikning ulushini oshirish va tadbirkorlar faoliyatini yanada qo'llab-quvvatlash.

Bozor samaradorligini baholash yuzasidan turli qarashlar mavjud. Xususan, Grossman-Stiglis paradoksiga [4] asosan, bozor nazariy va uzoq muddatda to'liq samarali bo'la olmaydi. Buning uchun samaradorlikka erishish uchun ishtirokchilar faol harakat qilishlari lozim bo'lib, ular o'z bitimlari bilan bozorni samarali bo'lishiga olib keladi.

Umuman olganda, mintaqada bozor samaradorligini oshirish uslubiyatini baholash va takomillashtirish uchun quyidagi yo'nalishlardagi tavsiyalarni amalga oshirish lozim:

- bozor holatini aks ettiruvchi muhim ko'rsatkichlarni hisoblash mexanizmini yanada takomillashtirish;
- bozor samaradorligi aniqlash va uni rivojlantirish strategiyasi va konsepsiyasini yanada takomillashtirish;
- bozor samaradorligini hisoblashda tashkiliy-vositaviy, moddiy-rag'batlantiruvchi va hisob-kredit omillarini alohida hisobga olish.

Foydalilanigan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni. O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida. 2017-yil 7-fevral, PF-4947сон, O'zbekiston Respublikasi qonun hujjalari to'plami, 2017-y., 6-сон, 70-modda.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Farmoni. 2019-2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini innovatsion rivojlantirish strategiyasini tasdiqlash to'g'risida. 2018-yil 21-sentabr, PF-5544-сон. www.lex.uz
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 30-oktabrdagi PF-5564-sonli "Tovar bozorlarida savdoni yanada erkinlashtirish va raqobatni rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi farmoni. <https://lex.uz/docs/4030912>
4. The American Economic Review. Vol. 70, No. 3 (Jun., 1980), pp. 393-408 (16 pages). <https://www.jstor.org/stable/1805228>



O‘ZBEKISTONDA SANOAT KORXONALARINI BARQAROR RIVOJLANTIRISH YO‘NALISHLARI

Baxriddinov Furqat Saloxiddinovich

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti 2-bosqich magistranti
Telefon: +998 (99) 554 29 95

Annotatsiya: Maqlada O‘zbekistonning sanoat korxonalarini rivojlanishi dinamikasi va tendensiyalarini tahlil etish asosida tarmoq taraqqiyotini jadallashtirish imkoniyatlari yoritilgan

Kalit so‘zlar: sanoat, industrial tarmoqlar, barqaror rivojlanish, kapital, modernizatsiya, qayta jihozlash, diversifikatsiya, investitsiya

Sanoat – moddiy ishlab chiqarishning eng yirik, mamlakat iqtisodiyotining yetakchi tarmoqlaridan biri. Sanoatning O‘zbekiston iqtisodiyotdagi roli va ahamiyatini quyidagi jadvaldan aniqroq ko‘rish mumkin (1-jadval).

1-jadval

O‘zbekiston Respublikasi sanoatining rivojlanishi dinamikasi


Ko‘rsatkichlar	2017 y.	2018 y.	2019 y.	2020 y.	2021 y.
Sanoat mahsuloti ishlab chiqarishning o‘sish surati, o‘tgan yilga nisbatan %da	105,2	110,8	105,0	100,9	108,7
Sanoatning milliy iqtisodiyotdagi salmog‘i, %da					
Yalpi ichki mahsulotda	21,1	25,3	28,1	27,4	27,8
Iqtisodiyotda band bo‘lgan aholi sonida	13,5	13,5	13,5	13,5	12,6
Asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalarda	36,6	33,6	36,3	37,8	35,3

Manba: O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasi ma’lumotlari asosida tuzilgan – www.stat.uz

Keltirilgan 1-jadvaldan ma’lumki, sanoatning (qurilishsiz) mamlakat yalpi ichki mahsulotidagi ulushi 2017-2021 yillarda 21,1 dan 27,8 foizga yoki 6,7 foiz punktga oshgan. Shu davrda iqtisodiyot tarmoqlarida band bo‘lgan jami aholida sanoatning salmog‘i 13,5 dan 12,6, asosiy kapitalga kiritilgan jami investitsiyalarda esa 36,6 dan 35,3 %ga kamaygan. Shunga qaramay sanoatning iqtisodiyotdagi salmog‘i yirik ekanligi yaqqol ko‘rinib turibdi.

Keyingi yillarda sanoat mahsulotining o‘tgan yillarga nisbatan o‘sish ko‘rsatkichlari o‘zgaruvchan tendensiyaga ega bo‘ldi. Jumladan, 2017-2020 yillarda eng yuqori o‘sish ko‘rsatkichi 2018 (110,8 %), eng past ko‘rsatkich esa 2020 yilga (100,9 %) to‘g‘ri keldi. 2020 yilda sanoat mahsulotining o‘sishi pasayishiga pandemiya kuchli ta’sir ko‘rsatgan.

Mamlakatimizda sanoat tarmoqlarini jadal rivojlanirish, ishlab chiqarishni modernizaçiyalash va diversifikasiyalash hamda resurs tejovchi unumdar zamonaviy texnologiyalarni joriy etishga qaratilgan tizimli ishlar amalga oshirilmoqda. Natijada aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish sezilarli darajada oshib bormoqda (1-rasm).



1-rasm. O‘zbekiston Respublikasida aholi jon boshiga sanoat mahsuloti va iste’mol tovarlari ishlab chiqarish, ming so‘mda

Manba: O‘zbekiston sanoati. O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasi ma’lumotlari asosida tuzilgan. www.stat.uz.

O‘tgan 2017-2021 yillarda aholi jon boshiga sanoat mahsuloti ishlab chiqarish joriy narxlarda 4 597,0 dan 12 935,2 ming so‘mga yoki 2,81 martaga, aholi jon boshiga iste’mol tovarlari ishlab chiqarish esa 1 842,9 dan 4 534,6 ming so‘mga yoki 2,46 martaga oshgan (1-rasm).

Iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha sanoat tarmoqlari tarkibida ishlab chiqaradigan sanoat asosiy o‘rinni egallab kelmoqda (2-jadval)

2-jadval

**Iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha sanoat ishlab chiqarishning tarkibi,
jamiga nisbatan foizda**

Ko‘rsatkichlar	2017 y.	2018 y.	2019 y.	2020 y.	2021 y.
Sanoat, jami	100	100	100	100	100
shu jumladan:					
Tog‘-kon sanoati va ochiq konlarni ishlatish	10,3	12,3	13,5	9,0	9,5
Ishlab chiqaradigan sanoat	81,1	80,6	79,0	83,0	83,0
Elektr, gaz, bug‘ bilan ta’minlash va havoni kondensiyalash	7,8	6,2	6,8	7,4	6,8
Suv bilan ta’minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig‘ish va utilizatsiya qilish	0,8	0,9	0,7	0,6	0,7

Manba: O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasi ma’lumotlari asosida tuzilgan – www.stat.uz

O‘tgan 2017-2021 yillarda ishlab chiqaradigan sanoatning jami sanoat mahsulotdagi salmog‘i 81,1 dan 83,0 foizga yoki 1,9 foiz punktga oshgan bo‘lsa, tog‘-kon sanoati va ochiq konlarni ishlatish tarmog‘i ulushi 10,3 dan 9,5, elektr, gaz, bug‘ bilan ta’minlash va havoni kondensiyalash ulushi esa 7,8 dan 6,8 foizga qisqargan.



O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasi ma’lumotlariga ko‘ra jami ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida mashina va asbob-uskunalar ishlab chiqarish, ta’mirlash va o‘rnatish, avtotransport vositalari, yarim tirkamalar va boshqa tayyor buyumlarni ishlab chiqarish sohasining ulushi – 17,6 %, metallurgiya sanoatining ulushi – 25,7 %, to‘qimachilik, kiyim, teri mahsulotlarini ishlab chiqarishning ulushi – 17,8 %, oziq-ovqat, ichimliklar va tamaki mahsulotlarini ishlab chiqarishning ulushi – 16,8 %, kimyo mahsulotlari, rezina va plastmassa buyumlarini ishlab chiqarishning ulushi – 9,4 % ni tashkil etgan [1].

Tadqiqotlarga ko‘ra bugungi kunda sanoat tarmoqlarining rivojlanishiga salbiy ta’sir ko‘rsatyotgan quyimdagи omillar mavjud:

- tarmoq korxonalaridagi asosiy vositalarning moddiy va ma’naviy jihatdan eskirganligi va yangilanish darajasi pastligi (2020 yilda sanoat ishlab chiqarish fondlarining eskirganlik darajasi 36,7, yangilanish koeffitsiyenti 19,0 va chiqib ketish koeffitsiyenti 1,9 foizga teng [2]).

- ishlab chiqarilayotgan mahsulotlarning sifat ko‘rsatkichlari va qadoqlanishi, tovar ko‘rinishi bo‘yicha ichki va jahon bozorlarida raqobatbardosh emasligi;

- qayta ishlash texnik standartlari va talablariga mos keluvchi xomashyo va mahsulotlarning yetishmasligi;

- sanoati korxonalarida yuqori unumli, energiya sig‘imi past va resurs tejamkor zamonaviy innovatsion texnologiyalar yetishmasligi;

- tarmoqda korxonalarining debitorlik va kreditorlik qarzdorligi sezilarli darajada o‘sib borayotganligi va boshqalar.

Fikrimizcha, sanoat tarmoqlarini jadal va barqaror rivojlantirish uchun quyidagi tadbirlarni amalga oshirish maqsadga muvofiq:

1. Sanoat tarmoqlarini texnik-texnologik modernizatsiyalashga ichki va xorijiy investitsiyalar jalb etishni davlat tomonidan rag‘batlantirish.

2. Sanoat korxonalarida resurs tejamkor va yuqori unumli texnologiyalar joriy etishga alohida e’tibor qaratish.

3. Sanoat korxonalarini xomashyo manbalariga yaqin va transport xarajatlarini tejash imkonini beruvchi ilmiy joylashtirish, rayonlashtirish va ixtisoslashtirish ishlarini jadallashtirish.

4. Klaster, kooperatsiya va boshqa tuzilmalar vositasida xomashyo yetishtirib beruvchilar va xomashyoni qayta ishlovchi sanoat korxonalarini o‘rtasidagi integratsion aloqalarni mustahkamlash.

5. Hududlarda “kichik sanoat zonalari” va “klaster tumanlari” tashkil etishni davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasining sanoat ishlab chiqarishi. 2021-yil yanvar-dekabr (dastlabki ma’lumot). www.stat.uz.

2. O‘zbekiston Respublikasi sanoati. O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasi. Toshkent-2021. -74-77 b.

**ТАДБИРКОРЛИКНИНГ ТАШҚИ ИҚТИСОДИЙ ФАОЛИЯТИНИ
РАҒБАТЛАНТИРИШДА ТИЖОРАТ БАНКЛАРИНИНГ ЎРНИ**

Назруллаев Жаҳонгир Фанишерович

Тошкент давлат иқтисодиёт университети 2-босқич магистранти

Телефон: +998 (93) 655 56 80

Аннотация: Мақолада тадбиркорлик субъектларининг ташқи иқтисодий фаолиятини рағбатлантириш ва кредитлашда тижорат банкларининг ролини ошириш масалалри кўриб чиқилган.

Калит сўзлар: тадбиркорлик, ташқи иқтисодий фаолият, экспорт, импорт, тижорат банки, кредит, имтиёз, субсидия, фоиз ставкаси

Мамлакатимизда амалга оширилаётган туб иқтисодий ислоҳотларда фаол тадбиркорликни ривожлантиришга алоҳида эътибор қаратилмоқда. Ўзбекистон Республикаси Президенти Ш.М.Мирзиёев таъкидлаганидек: “2030 йилга бориб, Ўзбекистон жон бошига ҳисоблагандан, ахоли даромадлари ўргача кўрсаткичдан юқори бўлган давлатлар қаторидан ўрин эгаллайди. Бунга, аввало, хусусий секторни рағбатлантириш ва унинг улушини ошириш ҳамда тўғридан-



тўғри хорижий инвестицияларни жалб этиш ҳисобидан эришиш кўзда тутилмоқда.” [1].

Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2022 йил 28 январдаги ПФ-60-сонли Фармони билан тасдиқланган “**2022-2026 йилларга мўлжалланган Янги Ўзбекистоннинг тараққиёт стратегияси**”да хусусий секторнинг ялпи ички маҳсулотдаги улушкини 80 фоизга ва экспортдаги улушкини 60 фоизга етказиш; давлат улушкига эга тижорат банкларида трансформация жараёнларини якунлаб, 2026 йил якунига қадар банк активларида хусусий сектор улушкини 60 фоизгача етказиш каби муҳим вазифаларни амалга ошириш белгилаб берилган [2]. Шундан келиб чиқиб тадбиркорлик субъектларининг ташки иқтисодий фаолиятини рағбатлантиришнинг муҳим омилларидан бири сифатида тижорат банклари ролини ошириш масалаларини атрофлича ўрганиш долзарб масалалардан бири саналади.

Мамлакатимизнинг барқарор ижтимоий-иктисодий ўсишини таъминлашда кичик бизнес ва хусусий тадбиркорлик субъектларининг ўрни бекиёсdir. Ўзбекистон Республикаси Давлат статистика қўмитаси маълумотларига кўра, кичик тадбиркорлик субъектларининг мамлакат ялпи ички маҳсулотидаги (ЯИМ) улуси муттасил ошиб бориб, 2021 йил якунлари бўйича 54,9, қишлоқ, ўрмон ва балиқ хўжалигига 96,7, қурилиш ишларида 72,4, хизматлар ҳажмида 51,1, саноат ишлаб чиқаришида 27,0 ва экспортда 22,3,%ни ташкил этди (1-жадвал).

1-жадвал

Ўзбекистон Республикасида кичик тадбиркорликнинг ривожланиши динамикаси

Кўрсаткичлар	2017 йил	2018 йил	2019 йил	2020 йил	2021 йил	2021 й. 2017 й.га нис., ф.п.
Кичик тадбиркорликнинг улуси, жамига нисб. %да						
Ялпи ички маҳсулот	65,3	62,4	56,0	55,7	54,9	- 10,4
Бандлик	78,0	76,3	76,2	74,5	74,4	- 3,6
Саноат	41,2	37,4	25,8	27,9	27,0	-14,2
Курилиш	64,8	73,2	75,8	72,5	72,4	+7,6
Инвестиция	34,8	38,0	47,0	46,0	47,9	+13,1
Экспорт	22,0	27,2	27,0	20,5	22,3	+0,3
Импорт	53,6	56,2	61,6	51,7	48,7	- 4,9
Савдо	88,3	86,3	84,3	82,3	82,1	- 6,2
Қишлоқ, ўрмон ва балиқ хўжалиги	98,1	98,3	98,3	96,7	96,7	- 1,4
Хизматлар	58,4	56,0	52,1	51,8	51,1	- 7,3
Юқ ташиш	54,2	55,5	54,6	51,6	49,4	- 4,8
Иўловчи ташиш	90,1	89,6	90,7	93,5	92,8	+2,7

Манба: Ўзбекистон Республикаси Давлат статистика қўмитаси. Ўзбекистон Республикасида кичик тадбиркорлик. 2021-йил январ-декабр. Тошкент-2022. – 1-2 б. <https://www.stat.uz/uz/rasmiy-statistika/small-business-and-entrepreneurship-2>.

Бугунги кунда олдимизда турган энг асосий вазифалардан бири – бу рақобатбардош маҳсулотлар ишлаб чиқариш ҳажмини ошириш, сифатини жаҳон андозалари талаблари даражасига етказиш орқали мамлакатимизнинг экспорт салоҳиятини ҳар томонлама ривожлантиришдир. Хусусан, Янги Ўзбекистоннинг 2022-2026 йилларга мўлжалланган тараққиёт стратегиясида хусусий секторнинг экспортдаги улушкини 60 фоизга етказиш кўзда тутилган.

Таҳлиллар асосида 2017-2021 йилларда тадбиркорлик субъектларининг мамлакат жами экспортидаги салмоғи 22,0 дан 22,3 %га ёки 0,3 фоиз пунктга ошгани ҳолда, жами импортдаги салмоғи 53,6 дан 48,7 %га ёки 4,9 фоиз пунктга камайганини кўриш мумкин. Демак, 2026 йилгача уларнинг жами экспортидаги салмоғини яна салкам 38 %га ошириш кўзда тутилмоқда.

Тадбиркорлик субъектларининг ташки иқтисодий фаолиятини ривожлантиришда тижорат банкларининг роли алоҳида аҳамиятга эга. Тадқиқотларга кўра бугунги кунда тадбиркорларнинг экспорт ва импорт операцияларини амалга оширишдаги энг асосий муммомлардан бири – бу молиялаштириш масаласи билан боғлиқ.

Кейинги йилларда республикамизнинг банк-молия секторини тубдан ислоҳ қилиш,



уларнинг тадбиркорликни ривожлантиришдаги ролини кескин оширишга қаратилган салмоқли ишлар амалга оширилди. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2019 йил 24 майдаги “Экспорт фаолиятини молиялаштириш ва суғурта ҳимояси механизмларини кенгайтириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги ПҚ-4337-сонли Фармонига мувофиқ Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамаси ҳузуридаги Тадбиркорлик фаолиятини ривожлантиришни кўллаб-кувватлаш давлат жамғармаси экспорт қилувчиларга:

- тижорат банкларининг экспорт олди кредитлари, шу жумладан айланма маблағларни тўлдириш учун берилган кредитлари бўйича фоиз харажатларини қоплашга, миллий валютадаги кредитлар бўйича - Ўзбекистон Республикаси Марказий банкининг қайта молиялаш ставкасидан ошган қисмида, бироқ 10 фоизлик пунктдан кўп бўлмаган миқдорда, хорижий валютадаги кредитлар бўйича - тижорат банклари томонидан белгиланган ставканинг 40 фоизи, бироқ 4 фоизлик пунктдан ошмаган миқдорда компенсация тақдим этади;

- тижорат банкларининг кредитлари, шу жумладан экспорт олди кредитлари бўйича кредит суммасининг 50 фоизигача, бироқ 4 миллиард сўмдан ошмаган миқдорда кафиллик беради.

Шунингдек, маҳаллий экспорт қилувчи корхоналарга (уларнинг ваколатли вакилларига) автомобиль, темир йўл ва ҳаво транспортида ташиб харажатларини 50 фоизигача миқдорда компенсация қилишга субсидиялар тақдим этиш механизми жорий қилинди.

Шу билан бирга тадбиркорлик субъектларининг ташқи иқтисодий фаолиятини кредитлашда қўйиги муаммолар мавжуд:

- кўпчилик тижорат банкларида имтиёзли кредитлаш учун ресурслар етарли эмас;
- кўпчилик корхоналарда кредитни олишда талаб этиладиган 120 фоизлик кафолат учун мол-мулк ёки маблағ етишмайди;
- кредитларни кафолатловчи суғурта тизимида давлат кафолати тизими шаклланмаган;
- кредит олиш шартлари нисбатан мураккаблигича қолмоқда;
- хорижий кредит линиялари талабларининг кўпчилик кичик тадбиркорлик субъектла-ри учун оғирлиги ва бошқалар.

Тадбиркорлик субъектларининг ташқи иқтисодий фаолиятини рағбатлантириш мақсадида қўйидаги тавсияларни илгари сурамиз:

1. Тижорат банклари кредитларининг тармоқлар ва худудлар бўйича тақсимланишида диверсификация даражасини ошириш лозим.

2. Кредит таваккалчилигини суғурталовчи институционал тузилмаларни кенг ривожлантириш мақсадга мувофиқ.

3. Тижорат банклари иштирокида молия-саноат гурӯҳларини ташкил этишини жадаллаштириш жоиз.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати:

1. Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг лавозимга киришиш тантанали маросимига бағишлиланган Олий Мажлис палаталари қўшма мажлисидаги нутки. 2021 йил 6 ноябрь. www.prezident.uz.

2. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2022 йил 28 январдаги “2022-2026 йилларга мўлжалланган Янги Ўзбекистоннинг тараққиёт стратегияси тўғрисида”ги ПФ-60-сонли Фармони. www.lex.uz.



**RESPUBLIKAMIZDA KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIKNI
RIVOJLANISH TENDENSIYALARI**

Eshboyev Jo‘rabek Baxodir o‘g‘li
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
2-bosqich magistranti
Telefon: +998 (99) 016 75 97

Annotatsiya: Maqolada mamlakatimizda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirishning ahamiyati va rolini oshirish masalalari yoritilgan.

Kalit so‘zlar: tadbirkorlik, kichik biznes, xususiy tadbirkorlik, davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash, kredit, imtiyoz, subsidiya

Respublikamizda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirishga katta e’tibor qaratilmoqda. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoev bu borada quyidagilarni ta’kidlagan: “2030 yilga borib, O‘zbekiston jon boshiga hisoblaganda, aholi daromadlari o‘rtacha ko‘rsatkichdan yuqori bo‘lgan davlatlar qatoridan o‘rin egallaydi. Bunga, avvalo, xususiy sektorini rag‘batlantirish va uning ulushini oshirish hamda to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalarni jalb etish hisobidan erishish ko‘zda tutilmoqda” [1].

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi PF-60-sonli Farmoni bilan tasdiqlangan **“2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi”**da: tadbirkorlik faoliyatini tashkil qilish va doimiy daromad manbalarini shakllantirish uchun sharoitlar yaratish; xususiy sektorning yalpi ichki mahsulotdagi ulushini 80 foizga va eksportdagi ulushini 60 foizga yetkazish; sharoiti og‘ir bo‘lgan tumanlarda tadbirkorlikni rivojlantirish uchun yanada qulay shart-sharoitlar yaratish; 2026 yil borib tadbirkorlik subektlariga soliq yuklamasini yalpi ichki mahsulotning 27,5 foizidan 25 foizi darajasiga kamaytirish; hududlarda tadbirkorlikni qo‘llab-quvvatlash, ishsizlik va kambag‘allikni qisqartirish bo‘yicha mavjud tuzilmalar faoliyatini takomillashtirish kabi muhim vazifalarni amalga oshirish belgilab berilgan [2]. Shulardan kelib chiqib kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish masalalarini atroflicha o‘rganish dolzarb masalalardan biri sanaladi.

O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasi ma‘lumotlariga ko‘ra, 2017-2021 yillarda joriy narxlarda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub’ektlari tomonidan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish 98,3, qurilish ishlari hajmi 246,1, savdo aylanmasi qiymati 120,3, qishloq, o‘rmon va baliqchilik mahsulotlari yetishtirish 102,1, xizmatlar ko‘rsatish 109,2, eksport hajmi 34,5 va import hajmi 64,9 foizga oshgan (1-jadval).

1-jadval

O‘zbekiston Respublikasida kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning rivojlanishi dinamikasi, joriy narxlarda

Ko‘rsatkichlar	2017 yil	2018 yil	2019 yil	2020 yil	2021 yil	2021 y. 2017 y.ga nisb., %
Sanoat (<i>mlrd. so‘m</i>)	61367,8	87962,0	83344,2	103020,8	121719,2	198,3
Qurilish (<i>mlrd. so‘m</i>)	22469,4	37451,7	53960,9	63866,6	77762,0	346,1
Bandlik (<i>ming kishi</i>)	10541,5	10128,8	10318,9	9865,7	10070,7	95,5
Eksport (<i>mln. AQSH dol.</i>)	2759,3	3810,8	4714,8	3100,9	3711,2	134,5
Import (<i>mln. AQSH dol.</i>)	7511,9	10916,2	14972,2	10943,3	12389,0	164,9
Savdo (<i>mlrd. so‘m</i>)	92973,0	114896,4	138920,7	164106,1	204787,4	220,3
Qishloq, o‘rmon va baliq xo‘jaligi (<i>mlrd. so‘m</i>)	152010,5	191759,2	219466,9	253238,2	307280,2	202,1
Xizmatlar (<i>mlrd. so‘m</i>)	69212,7	84433,4	103106,6	114052,7	144812,7	209,2
Yuk tashish (<i>mln. tonna</i>)	548,8	611,7	641,0	638,9	678,9	123,7
Yuk aylanmasi (<i>mln. tonna-km</i>)	10444,4	11657,7	12152,3	12304,6	13108,1	125,5
Yo‘lovchi tashish (<i>mln. yo‘lovchi</i>)	5037,5	5242,6	5345,0	4904,8	5237,6	104,0
Yo‘lovchi aylanmasi (<i>mln. pass. km</i>)	111435,0	115335,2	117412,7	107766,7	114681,5	102,9



Manba: O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasi. O‘zbekiston Respublikasida kichik tadbirkorlik. 2021-yil yanvar-dekabr. Toshkent-2022. –1-2 b. <https://www.stat.uz/uz/rasmiy-statistika/small-business-and-entrepreneurship-2>.

Kichik tadbirkorlik subyektlarining soni 2021 yilda har 1000 aholiga 16,5 birlikni tashkil qildi. 2021 yilning yanvar-dekabrida 98,9 mingta yangi kichik korxona va mikrofirmalar (fermer va dehqon xo‘jaliklarisiz) tashkil qilindi, bu o‘tgan yilning shu davriga nisbatan 6,1 foizga ko‘p demakdir.

Kichik tadbirkorlik subyektlarining mamlakat Yalpi ichki mahsulotidagi (YaIM) ulushi muttasil oshib borib, 2021 yil yakunlari bo‘yicha 54,9, qishloq, o‘rmon va baliq xo‘jaligida 96,7, qurilish ishlarida 72,4, xizmatlar hajmida 51,1, sanoat ishlab chiqarishida 27,0 va eksportda 22,3, foizni tashkil etgan (2-jadval).

2-jadval

O‘zbekiston Respublikasida kichik tadbirkorlikning mamlakat iqtisodiyotidagi salmog‘i, jamiga nisb. %da

Ko‘rsatkichlar	2017 yil	2018 yil	2019 yil	2020 yil	2021 yil	2021 y. 2017 y.ga nis., f.p.
Yalpi ichki mahsulot	65,3	62,4	56,0	55,7	54,9	- 10,4
Bandlik	78,0	76,3	76,2	74,5	74,4	- 3,6
Sanoat	41,2	37,4	25,8	27,9	27,0	-14,2
Qurilish	64,8	73,2	75,8	72,5	72,4	+7,6
Investitsiya	34,8	38,0	47,0	46,0	47,9	+13,1
Eksport	22,0	27,2	27,0	20,5	22,3	+0,3
Import	53,6	56,2	61,6	51,7	48,7	- 4,9
Savdo	88,3	86,3	84,3	82,3	82,1	-6,2
Qishloq, o‘rmon va baliq xo‘jaligi	98,1	98,3	98,3	96,7	96,7	- 1,4
Xizmatlar	58,4	56,0	52,1	51,8	51,1	- 7,3
Yuk tashish	54,2	55,5	54,6	51,6	49,4	- 4,8
Yo‘lovchi tashish	90,1	89,6	90,7	93,5	92,8	+ 2,7

Manba: O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasi. O‘zbekiston Respublikasida kichik tadbirkorlik. 2021-yil yanvar-dekabr. – 1-2 b. <https://www.stat.uz/uz/rasmiy-statistika/small-business-and-entrepreneurship-2>.

Tahlillarga ko‘ra respublikamizda kichik tadbirkorlikni rivojlanishiga quyidagi omillar salbiy ta’sir ko‘rsatmoqda:

- faoliyat ko‘rsatayotgan kichik tadbirkorlik sub’ektlarining iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha taqsimlanishi tarmoqlar bo‘yicha keskin farqlanadi (2021 yilda savdo hissasiga 33,8, sanoatga 19,5, qishloq, o‘rmon va baliqchilikka 9,9, qurilishga 9,4, yashash va ovqatlanish bo‘yicha xizmatlarga 7,1, tashish va saqlashga 3,9, axborot va aloqaga 2,2, sog‘lijni saqlash va ijtimoiy xizmatlarga 1,9 va boshqa faoliyat turlariga 12,2 %). Bu borada ayrim tarmoqlar salohiyati yaxshi ishga solinmagan [3];

- yangi tashkil etilayotgan kichik korxona va mikrofirmalar sonini viloyatlar bo‘yicha taqsimlanishida keskin tafovutlar mavjud (2021 yilda Toshkent shahri hissasiga 16,2, viloyatlardan Samarqandga 10,9, Qashqadaryoga 9,6, Farg‘onaga 9,2 foiz to‘g‘ri kelgan bo‘lsa, Navoiy viloyatida bu ko‘rsatkich 4,9, Jizzaxga 4,4 va Sirdaryoga 2,3 foizga teng bo‘lgan [3]), ya’ni mazkur hududlarning salohiyati ham yaxshi ishga solinmagan;

- kichik tadbirkorlik sub’ektlari tomonidan 2021 yilda amalga oshirilgan eksportning viloyatlar jami eksportidagi salmog‘ida Sirdaryo (76,4 %), Surxandaryo (60,0 %), Xorazm (51,7 %), Namangan (49,6 %) va Farg‘ona (49,4 %) viloyatlari yetakchi bo‘lsa, Toshkent (23,4 %) va Navoiy (11,9 %) viloyatlari, Qoraqalpog‘iston Respublikasi (22,1 %) va Toshkent shahri (17,2 %) ancha past ko‘rsatkichlarni namoyish etgan [3];

- hududlar kesimida kichik tadbirkorlik sub’yektlarining sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi salmog‘i ham keskin farq qiladi (2021 yilda eng yuqori ko‘rsatkich Toshkent shahri (31226,2 mlrd. so‘m), Toshkent (14407,4 mlrd. so‘m), Farg‘ona (12746,0 mlrd. so‘m) va Andijon (9739,5



mlrd. so‘m) viloyatlariga, eng kami esa Sirdaryo (3868,9 mlrd. so‘m), Surxandaryo (3488,2 mlrd. so‘m) va Xorazm (3003,1 mlrd. so‘m) viloyatlariga to‘g‘ri kelgan [3].

Yuqoridaqilardan kelib chiqib respublikamizda kichik tadbirkorlikni barqaror rivojlantirish uchun birinchi navbatda hududlarning imkoniyatlari va salohiyatini chuqur tahlil etish asosida tizimli yondashish, har bir hududda kichik tadbirkorlikning rivoqlanish ko‘rsatkichlaridan kelib chiqib rag‘batlantiruvchi mexanizmlarni joriy etish hamda davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash tadbirlarini kuchaytirishni tavsiya etamiz.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning lavozimga kirishish tantanali marosimiga bag‘ishlangan Oliy Majlis palatalari qo‘shma majlisidagi nutqi. 2021 yil 6 noyabr. www.prezident.uz.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi “2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-60-sonli Farmoni. www.lex.uz.

3. O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasi. O‘zbekiston Respublikasida kichik tadbirkorlik. 2021-yil yanvar-dekabr. Toshkent-2022. –1-2 b. <https://www.stat.uz>.



ЎЗБЕКИСТОНДА ТЎҚИМАЧИЛИК САНОАТИДА САМАРАДОРЛИКНИ ОШИРИШ ХУСУСИЯТЛАРИ

Н.О.Яқубова

Урганч давлат университети
“Иқтисодиёт (тармоқлар ва соҳалар
бўйича)” мутахассилиги 2-курс магистранти

Аннотация. Ушбу мақолада Ўзбекистонда тўқимачилик саноатида самарадорликни оширишнинг хусусиятлари ёритиб берилган.

Калит сўзлар. Тўқимачилик, тўқимачилик саноати, ишлаб чиқариш, жараёнли бошқарув.

Бугунги кунда Ўзбекистонда тўқимачилик саноати, жумладан трикотаж, ипакчилик, тикувчилик каби тармоқларни модернизациялаш, экспортбоп, юқори сифатли тўқимачилик маҳсулотларини ишлаб чиқариш корхоналарининг фаолиятини ташкил этишга эътибор қаратилмоқда. Бу борада ишлаб чиқаришни ташкил этишининг узлуксиз шаклларини жорий этиш тўқимачилик саноатини кенг ривожлантириш ҳамда экспортбоп сифатли маҳсулотлар ишлаб чиқариш бўйича амалга оширилаётган чора-тадбирларни муҳим шарти ва асоси бўлиши лозим.

Шу боис, Ўзбекистонда тўқимачилик саноати таркибидаги трикотаж, ипакчилик, тикувчилик каби тармоқларни модернизациялаш, экспортбоп, юқори сифатли тўқимачилик маҳсулотларини ишлаб чиқариш корхоналар фаолиятини ташкил этишининг йўналиши сифатида қаралиб, бу борада бир қатор меъёрий-ҳукуқий асослар такомиллаштирилди.

Мазкур қарорга асосан, тўқимачилик ва тикув-трикотаж саноатида амалга оширилаётган ислоҳотларни янада чуқурлаштириш, соҳани жадал ривожлантириш ва диверсификатсия қилиш учун қулай шарт-шароитлар яратиш, тўқимачиликда ярим тайёр маҳсулотларни чуқур қайта ишлашга инвестициялар ҳажмини ва тайёр маҳсулотлар экспортини ошириш бугунги кунда тўқимачилик корхоналари олдидаги устувор вазифа сифатида белгиланган.

Тўқимачилик ишлаб чиқаришининг ўз хом ашё базасига эга эканлиги пахта хом ашёсига қайта ишлов берадиган Ўзбекистон тўқимачилик саноатининг жадал суръатлар билан ривожланиши учун асособўлиши лозим. Буборадат тўқимачилик саноати рақобатбардошлигини оширишнинг муҳим йўналиши сўнгти йилларда бошқарувга нисбатан жараёнли ёндашувга асосланган сифат менежменти тизимини жорий этиш ҳамда ўзгарувчан бозор шароитида экспортбоп, юқори сифатли тўқимачилик маҳсулотларини ишлаб чиқариш корхоналари фаолиятини ташкил этиш борасидаги илмий тадқиқотлар қўламини янада кенгайтириш мақсадга мувофиқ ҳисобланади.

Аввало, тўқимачилик саноати корхоналари ишлаб чиқариш самарадорлигини ошириш, бозор талабига мос равишда юқори сифатли харидоргир маҳсулотлар ишлаб чиқариш учун иқтисодий ва ташкилий шарт-шароитлар мавжуд бўлишини тақозо этади.

Юқори сифатли маҳсулот ишлаб чиқариш бозор муносабатлари шароитида қўшимча даромад манбаи бўлиб, корхоналарнинг рақобатбардошлигини оширади. Шу билан бирга, тўқимачилик саноати корхоналарида иш фаолиятини бугунги кун даражасида ташкил этиш долзарб масала бўлиб ҳисобланади. Шу боис, тўқимачилик саноати корхоналарида ишлаб чиқариш самарадорлигини ошириш омили бўлиб, илмий-техник тараққиёт ютуқларини тезкорлик билан ишлаб чиқаришга жорий этиш ҳисобланади. Дунё бозори талабларига жавоб берадиган маҳсулот ишлаб чиқариш учун корхоналарни ишлаб чиқаришга пухта тайёрлашни талаб этади.

Ушбу вазифаларни муваффақиятли амалга ошириш учун тўқимачилик саноати корхоналарини техник жиҳатдан қайта қуроллантириш, янги техника ва илғор технологияни жорий этиш, янги материаллардан фойдаланиш, шу билан бирга технологик жараёнларни оқилона йўлга қўйиш талаб қилинади. Бунинг учун меҳнатни оқилона ва тўғри ташкил қилиш лозим, чунки ҳар қандай техника ва технология ўз-ўзидан юқори кўрсаткичларга эришишга ёрдам бера олмайди. Шу боис, техника ва технологияни жорий қилишни, меҳнатни тўғри ташкил қилиш билан биргаликда олиб бориш мақсадга мувофиқдир.

Тўқимачилик корхоналарида ишлаб чиқаришни ташкил этиш турлари ишлаб чиқариш операцияларини бажаришда иш жойининг ихтисослашганлиги, турли операцияларнинг



ишлиб чиқариш жараёнидаги бир-бири билан боғланиш шакллари, ишлиб чиқарилаётган маҳсулот турлари ва уларнинг миқдори, корхонанинг таркиби ва қуввати билан белгиланади. Ишлаб чиқаришнинг алоҳида хусусиятлари ва тавсифига қараб, якка тартибда, серияли ҳамда оммавий ишлиб чиқариш ташкил этилиши мумкин.

Тўқимачилик корхоналари фаолияти оммавий ишлиб чиқариш турига киради. Чунки, тўқимачилик корхоналарида ишлиб чиқариладиган маҳсулотлар бир-биридан жуда кам ҳолда фарқланади, яъни хом ашё сарфи қўлланаётган технологик жараён маҳсулот таркиби кабилар шулар жумласидандир.

Тўқимачилик саноати корхоналарида самарадорликни ошириш учун жараёнли бошқарувни қўллаш зарур. Бу орқали бизнес-жараёнларининг масалаларини осон ҳал қилиш ва корхонанинг стратегик мақсадларига эришиш мумкин бўлсин. Бизнес-жараёнларини ажратиб олиш, уларнинг чегаралари, функцияларни бажарган бўлинмаларнинг ташкилий жавобгарлиги ва ўзаро бир-бирига боғлиқлигини шакллантирувчи функциялар таркибини аниқлайди.

Тўқимачилик саноати корхоналарида ишлиб чиқаришни ташкил этишда бизнес-жараёнларини бошқаришнинг асосий мақсади – ортиқча операцияларни бартараф қилиш, бизнесни олиб бориш жараёнларини камайтириш ва мижоз учун истеъмол қийматини яратувчи биринчи категорияли бизнес-жараёнларини бажарилиш самарадорлигини ошириш заруратини белгилайди.

Тўқимачилик саноати корхоналари ишлиб чиқариш самарадорлигини ошириш, бозор талабига мос равишда юқори сифатли харидоргир маҳсулотлар ишлиб чиқариш учун иқтисодий ва ташкилий шарт-шароитлар мавжуд бўлишини тақозо этади. Тўқимачилик корхоналарининг умумий белгиларига қарамасдан, йигириш, тўқиши ва пардозлаш корхоналарида ўзига хос алоҳида хусусиятлар мавжуд бўлади. Корхонада ишлиб чиқаришни ташкил этишда юқорида келтирилган хусусиятларни хисобга олиш, маҳсулот сифатини ҳамда ишлиб чиқариш самарадорлигини ошириш имкониятини беради.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати:

1. “Тўқимачилик ва тикув-трикотаж саноатини жадал ривожлантириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2017 йил 14 декабрдаги ПФ-5285-сонли Фармони.
2. Болтабоев М.Р. Тўқимачилик саноатида маркетинг стратегияси. Монография. – Т.: ФАН, 2004. – 223 б.
3. Сайфутдинов М.А. Тикувчилик корхоналари маркетинг стратегиясини ишлиб чиқиш: Иқтисод фанлари номзоди... дис. – Т.: ТДИУ, 2004. – 170 б.

ЎЗБЕКИСТОНДА МИЛЛИЙ ТАДКИКОТЛАР: ДАВРИЙ АНЖУМАНЛАР: 9-ҚИСМ

Масъул мухаррир: Файзиев Шоҳруд Фармонович
Мусаҳҳих: Файзиев Фарруҳ Фармонович
Саҳифаловчи: Шахрам Файзиев

Эълон қилиш муддати: 31.05.2022

Контакт редакций научных журналов. tadqiqot.uz
ООО Tadqiqot, город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of tadqiqot.uz
Tadqiqot LLC The city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Phone: (+998-94) 404-0000